



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 04 | pp. 70-78 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

ISHLAB CHIQRISH QUVVATINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH MEXANIZMI



Mamajonova Gulasal Oribjon qizi,
Farg‘ona politexnika instituti,
“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrası, katta o‘qituvchi,
e-mail: gulasal_mamajonova2023@ferpi.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada biz korxonalarda ishlab chiqarish quvvatini innovatsion rivojlantirish mexanizmi to‘g‘risidagi masalalarini ko‘rib chiqamiz, ishlab chiqarish quvvatlarini tahlil qilish asosiy maqsad sifatida qabul qilingan. Zero, bu masala asosiy vositalarning bandligini ta‘minlash, texnologik yangilanishlarni hisobga olgan holda ishchilarning mehnat unumdorligini oshirish masalalarini o‘rganish uchun dolzarbdır. Tahlillar va natijalar kompaniyaning texnologik yangilanishini hisoblash, ish jarayonining uzluksizligini ta‘minlash va xodimlarning mehnat unumdorligini oshirish orqali amalga oshirildi. Ushbu usullardan foydalanganda korxonalar qo‘shimcha ijobiy iqtisodiy samara oladi degan xulosaga kelishdi.

Kalit so‘zlar: ishlab chiqarish quvvati, uskunalardan foydalanish samaradorligi, texnik jihatdan oqilona ishlab chiqarish quvvati, tejamkor ishlab chiqarish quvvati, ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish samaradorligi, ish natijalari.

МЕХАНИЗМ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ МОЩНОСТЕЙ

Аннотация. В данной статье мы рассмотрим вопросы механизма инновационного развития производственных мощностей на предприятиях, в качестве основной цели был принят анализ производственных мощностей. Ведь этот вопрос актуален для изучения вопросов обеспечения занятости основных инструментов, повышения производительности труда работников с учетом технологических обновлений. Анализы и результаты были проведены путем расчета технологического обновления компании, обеспечения непрерывности рабочего процесса и повышения производительности труда сотрудников. При использовании этих методов предприятия пришли к выводу, что получают дополнительный положительный экономический эффект.

Ключевые слова: производственные мощности, эффективность использования оборудования, технически рациональные производственные мощности, экономичные производственные мощности, эффективность использования производственных мощностей, результаты работы.

THE MECHANISM OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF PRODUCTION FACILITIES

Abstract. In this article, we will consider the issues of the mechanism of innovative development of production capacities at enterprises, the analysis of production capacities was adopted as the main goal. After all, this issue is relevant for studying the issues of ensuring the employment of basic tools, increasing the productivity of workers, taking into account technological updates. The analyses and results were carried out by calculating the technological upgrade of the company, ensuring the continuity of the workflow and increasing employee productivity. When using these methods, enterprises have come to the conclusion that they will receive an additional positive economic effect.

Key words: production capacity, equipment utilization efficiency, technically sound production capacity, economical production capacity, production capacity utilization efficiency, work results.

Kirish qismi. Iqtisodni erkinlashtirish sharoitida xalq farovonligini oshirish borasida iqtisod bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar muhim o‘rin egalladi. Ana shu iqtisodga asoslanib, ijtimoiy masalalarni hal qilish, davlatning tashqi tahdidlarga qarshi himoya vositalari, faol tashqi siyosatga poydevor yaratiladi. Iqtisod, ijtimoiy ishlab chiqarish, taqsimot va ayirboshlash barcha bo‘g‘inlarini qamrab oluvchi milliy iqtisodiyot kompleksini tashkil etadi. Bu kompleksda asosiy o‘rin sanoat korxonalariga tegishlidir. Chunki u yerda bevosita ishlab chiqarish jarayoni amalga oshirilib, moddiy boyliklar yaratiladi.

Ushbu ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni tezroq hal qilish, ularning yechimini izlab topish, milliy istiqloq mafkurasining mazmunini va xususiyatlarini tushunish ko‘p jihatdan rivojlantirish modellarini, ayniqsa, korxonalarni rivojlantirish strategiyasi mazmunini, uning jahon talablari va xususiyatlarini, qonun-qoidalarini, amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish, tarkibiy o‘zgartirish, modernizatsiyalash va diversifikatsiyalashdagi maqsadi va mohiyatini chuqurroq bilishlariga bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta’kidlaganidek: “Sanoatning 12 ta yetakchi tarmog‘ida modernizatsiyalash va raqobatdoshlikni kuchaytirish dasturlari jadal amalga oshirilmog‘da. Natijada o‘tgan yili iqtisodiy o‘shish 5,6 foizni tashkil etdi. Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 6,6 foizga, eksport — 28 foizga ko‘paydi. Oltin-valyuta zaxiralarimiz 2019 yil davomida 2,2 milliard dollarga ortib, 28,6 milliard dollarga yetdi”[1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoniga muvofiq, “Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o‘shish sur‘atlarini ta’minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni — 1,6 baravar va 2030-yilga borib, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni 4 ming AQSH dollaridan oshirish [2].

Bundan ko‘rinadiki, bugungi kunda yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoatning ulushi salmoqli foizni egallab turibdi. Shuning uchun korxonalarida samarali ishlab

chiqarishni tashkil etish dolzarb masalalardan biridir, buning birdan bir yoli korxonalarda ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish hisoblanadi. Ilmiy va amaliy yutuqlarni va xulosalarini yurtimiz korxonalarida joriy etish ularni rivojlantirishning qisqa va uzoq muddatlarga belgilangan dasturlarini ishlab chiqishda keng foydalanish zarur. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida ishlab chiqarishning ulushi yuqori bo'lganligi sababli ushbu masalaning ahamiyati va uni o'rganish zarurati katta.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Hozirgi kunga kelib ko'plab olimlar va mutaxassislari korxonalarda ishlab chiqarish quvvatini oshirish masalasida fikr yuritganda uni innovatsion rivojlantirish ahamiyati to'g'risida va uning mexanizmlari haqida fikr yuritmoqdalar, misol uchun yurtimiz olimlaridan biri N.G. Muminov muallifligidagi "Industrial iqtisodiyot" nomli darsligida ushbu masala haqida to'xtalar ekan quyidagicha fikr bildirgan "Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy yo'llaridan biri mavjud ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishni yaxshilashdir. Ulardan samarali foydalanish masalasi ayniqsa, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham O'zbekistonda ulardan unumli foydalanishga alohida e'tibor berib kelinmoqda.

Ishlab chiqarish quvvatlaridan qanchalik to'la va unumli foydalanilsa, ko'proq mahsulot ishlab chiqariladi, mahsulotning tannarxi kamayadi, korxonaning foydasi va samaradorligi oshadi.

Korxonaning ishlab chiqarish quvvati vaqt birligi ichida belgilangan assortiment va nomenklatura, mavjud dastgohlar, ishlab chiqarish maydonlaridan to'liq foydalanilgan holda mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatini ifodalaydi" [6].

Yana yurtimiz olimlari N.B. Ashurova va Sh.A. Atamuradov muallifligidagi "Korxonalar iqtisodiyoti va menejmenti" nomli o'quv qo'llanmada ushbu masal shunday bayon etiladi "Korxonalar ishlab chiqarish quvvatini aniqlashda zaxiradagi uskunalardan tashqari, barcha o'rnatilgan uskunalar hisobga olinadi. Ba'zi bir sexlarda (yig'uv, quyuv va boshqa sexlarda) ishlab chiqarish quvvati ishlab chiqarish maydonlariga asosan hisoblanadi.

Ishlab chiqarish quvvatini aniqlashda mahsulot birligiga sarflanuvchi vaqt normasi yoki har bir uskunaning unumdorlik normalari muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular ilg'or hamda progressiv bo'lishi talab qilinadi" [7].

Yuqoridagi olimlarning fikrlarini o'rganar ekanmiz, biz korxonalar ishlab chiqarish quvvatini rivojlantirish masalasi doimiy ravishda innovatsion rivojlanish bilan bog'liqligini ko'rishimiz mumkin, ushbu fikrini yurtimiz olimlari X.S. Asatullayev, B.O.Tursunov, M.A. Mamanazarovning muallifligidagi "Korxonalar rivojlantirish strategiyasi" darsligida ham ko'rishimiz mumkin "Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonada innovatsiyani qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion muhitni shakllantirish doimiy ravishda mahsulotni yangilash, ishlab chiqarish fondlarini yangi texnika asosida yangilash, umum jamiyatni rivojlantirish imkoniyatini yaratish holatlariga sharoit barpo etadi. Innovatsiya iborasi inglizcha "innovatsion" so'zidan olinib yangi ilmiy texnik yutuqni ifodalab, yangi mahsulotni amalda qo'llanilish jarayoniga aytiladi" [8].

Xoriji olimlarning ham ilmiy izlanishlarning tahlili shuni ko'rsatmoqdaki korxonalarda ishlab chiqarish quvvatini oshirish bevosita innovatsion rivojlantirish bilan bog'liq bunga A.A. Danilov va G.Yu. Silkina fikrlari misol bo'la oladi "korxonasining barqaror rivojlanishini investitsion qo'llab-quvvatlashning global maqsadi eng samarali va foydali loyihalarga investitsiyalarni jalb qilish orqali ishlab chiqarish faoliyati ko'lamining o'sish jarayonini ratsionalizatsiya qilishdir, bu esa oxir-oqibat korxonaning ilmiy, texnik, iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatida taraqqiyotga olib kelishi kerak [9].

Shuningdek ko'plab xoriji ilmiy tadqiqotlarda quyidagi fikrlarga duch kelishimiz mumkin: "Ishlab chiqarish quvvati-bu kompaniyaning ishlab chiqarish salohiyatini aks ettiruvchi kumulyativ ko'rsatkich bo'lib, uning iqtisodiy ko'rsatkichlarini oshirish uchun ishlatiladi. Ushbu parametr asbob-uskunalar, ishlab chiqarish maydonlari, mehnatni tashkil etish va eng yaxshi texnologiyalar bilan optimal iste'mol qilish bilan belgilanadigan maksimal mumkin bo'lgan qiymatdir [10].

Yuqoridagilarga asoslangan xolda shuni aytish mumkinki korxonaning ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish to'g'ridan to'g'ri korxonaning innovatsion rivojlantirish mexanizmlariga, elementlariga bog'liq.

Tadqiqot metodologiyasi. Muallif ushbu maqolada ishlab chiqarish quvvatini innovatsion rivojlantirish mexanizmi sifatida ishlab chiqarish elementlari tarkibi orasidagi aloqalarning yaxshilash, taklif etib ushbu nazariy xulosasini elementning samaradorligi ta'minlash, umumiy korxonaning ishlab chiqarish quvvati oshirishga xizmat etishini asoslagan. Bunda ma'lumotlari qiyosiy tahlil, etish, muammoli vaziyatga yechim uslublardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Moddiy ne'matlar ishlab chiqarish, ularni taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish tufayli kishilar o'rtasidagi, ularning jamoalari o'rtasidagi munosabatlar ishlab chiqarish munosabatlari deyiladi [4].


Tovar xo'jaliklarining iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lib, alohida — alohida faoliyat olib boradi. Buning ma'nosi shundaki, nima ishlab chiqaradi, qancha ishlab chiqaradi, kimga va qayerda sotadi, qanday baholarda sotadi — bu faqat tovar ishlab chiqaruvchining o'z ishi, u faqat bozor qonunlari (qiymat qonuni, talab va taklif qonuni, pul muomalasi qonuni, raqobat kurashi qonuni)ni tan oladi, ularning talablari bilan hisoblashadi.

Tovar ishlab chiqarish bozor iqtisodiyoti tizimining moddiy asosi. Demak, xususiy mulkchilikni, uning rang-barang shakllarini, umuman ko'p mulkchilikni vujudga keltirish lozim. Shuning uchun ham O'zbekistonda "Mulknii davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida" [1] qonun qabul qilingan.

Kishilik jamiyati taraqqiyotining negizi uning bir tarixiy bosqichdan boshqa bir bosqichiga o'tishining asosiy moddiy ishlab chiqarish, ya'ni kishilarning yashashlari uchun zarur iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish ekanligi shubhasizdir. Bir so'z bilan aytganda: moddiy ne'matlar jamiyat hayoti va taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan asosiy shartdir.

Moddiy ne'matlar ishlab chiqarish tarixan juda katta yo'l bosib o'tdi hamda to hozirgi yuksak rivojlangan ishlab chiqarish bosqichigacha yetdi. Biroq har bir tarixiy bosqichda uning o'ziga xos xususiyatlaridan tashqari, ishlab chiqarishni ijtimoiy xususiyatidan qat'iy nazar, ishlab chiqarish uchun umumiy bo'lgan xususiyatlar mavjud

bu korxonalarda ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish masalasidir. Shu o‘rinda yana bir jihat, har qaysi ishlab chiqarish uchun inson bilan tabiat o‘rtasida o‘zaro harakat mavjudligi xarakterlidir, bu o‘zaro harakat mobaynida inson tabiat buyumlarini o‘zgartiradi va o‘z ehtiyojini qondirish uchun moslashtiradi. Bu jarayon har qanday ishlab chiqarishda uch elementni — odam mehnati(ishchi kuchi), mehnat predmetlari va mehnat vositalari mavjud bo‘lishini ko‘rsatadi:



1-rasm. Ishlab chiqarish elementlari tarkibi

Ishlab chiqarishning tarixi davomida odamlar doimo shu elementlarning eng yaxshi aloqasini ta‘minlovchi nisbatni topishga, uni takomillashtirishga va shu orqali oz miqdordagi harakat va moddiy sarflar orqali yaxshi natijaga, a‘lo navli mahsulot ishlab chiqarishga intilganlar.

Amaliyot sifatida ishlab chiqarishni tashkil qilish eng yaxshi natija olish maqsadida ishlab chiqarish elementlarini taqsimlash va ishlatish bilan shug‘ullanadi. Bu ko‘p pog‘onali va mashaqqatli ish faqatgina fanni bilish asosida, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilish tamoyillarini bilgan holda amalga oshirishi mumkin.


Ishlab chiqarishning mohiyatini bilmay, taraqqiy etish va rivojlanish qonunlarini anglamay, uni samarali tashkil etish mumkin emas, uni inson manfaatiga foydalanish, uning faoliyatini zamonaviy texnologiyaga o‘tkazish mumkin emas. Shu bois tashkil etish deganda uyushtirish, tuzish, jalb etish, tashkiliy tuzilishni ta‘minlash kabi ifodalar anglanishi mumkin.

Tashkil etish — ilmiy texnik taraqqiyotni hisobga olgan holda rejalarini shakllantirishni va uzoq muddatli strategiyalarni tizimini amalga oshirishda ishlab chiqarish, ijtimoiy- iqtisodiy, ruhiy, nisbiy munosabatlarning barcha shakllari bilan qamrab olinishi zarur va bu uning kafolati hamdir. Ishlab chiqarishni tashkil etish insonni bilimidagi, mahoratidagi, harakatidagi va tajribasidagi, uni ongidagi ba‘zi bir sayoz tomonlarini to‘ldirishga ta‘sir ko‘rsatadi, barcha jarayonlarni bajarilishida lozim bo‘lgan malaka oshirish uchun sharoit bilan ta‘minlaydi.

Yuqoridagilarga asoslangan xolda shuni aytish mumkinki, biz korxonalarda ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligini oshirishni xollar ekanmiz shu uchta elementning samaradorligi ta'minlashimiz zarur, zero bir bo'rining yuksalishi bu butun tizimga turlicha tasir etishi mumkin, xam ijobiy ham salbiy. Shu o'rinda biz o'zi foydalanish samaradorligini tushunishimiz kerak, foydalanish samaradorligini bu ma'lum davr ichida korxonalar tomonidan o'zlariga tegishli resurslaridan foydalanish darajasini va natijasini ko'rsatadi, shuningdek bu ishchi xodimlarning mehnat unumdorligiga, mavjud quvvatlardan oqilona foydalanish foiziga, xom ashyolar tarkibi va sifatiga hamda ko'plab boshqa omilarga bog'liq. Bu taqdim etilayotgan rasmdan yanada yaqqol ko'rinadi.

2-rasm. Samaradorlikni tashkil etish omilari.

Bozor munosabatlari bugungi kunda yana bir katta omilni hisobga olishni taqozo etmoqda, bu iste'molchilarni talabi va xohishi, ushbu omilni ta'siri to'g'ridan to'g'ri korxonaga foydasiga tasir o'tkazadi. Shu sababli ishlab chiqarish dasturini shakllantirishda, iste'molchilarning (aholi yoki tashkilotlarning) mahsulotga qo'yayotgan talablarini bilish va korxonaning ishlab chiqarish quvvatlari to'g'ri taqsimlash zarur.



Shulardan kelib chiqqan holda bizningcha korxonaning ishlab chiqarish quvvati-bu ishlab chiqarish vositalaridan, ishlab chiqarishni tashkil etishning amaliy usullaridan, mehnat va boshqaruvdan to'liq foydalangan holda ishlab chiqarish strategiyasini shakllantirish, mahsulot nomenklatura va assortimentini belgilash va ma'lum davr birligiga (ko'pincha yiliga) mumkin bo'lgan maksimal mahsulot hajmini belgilashdir.

“Korxonalarni rivojlantirish strategiyasi” — aholi va xalq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko'rsatishning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'muriy-xo'jalik mexanizmlarini o'rganuvchi va ochib beruvchi fandır. U tabiat va jamiyatning muayyan ishlab chiqarish sharoitlarida rivojlanishining obyektiv qonunlari namoyon bo'lishi va amal qilishiga, Shuningdek, korxonalar faoliyatiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi davlat miqyosida qabul qilinuvchi qoida, normativ va qonun hujjatlariga tayanadi [5].

Ishlab chiqarish, qoida tariqasida, bir nechta tarkibiy bo‘linmalar – sexlar, uchastkalar, ustaxonalar tomonidan amalga oshiriladi, shuning uchun bitta texnologik jarayonning har bir bo‘limining ishlab chiqarish imkoniyatlarini bilish juda muhimdir.

Korxonaning ishlab chiqarish quvvati yetakchi bo‘linmalarining quvvati bu butun ishlab chiqarishning quvvatini bilan belgilanadi, shu bilan birga har qanday birlikning yetakchi bo‘g‘inining quvvati uning ta‘minoti quvvati bilan belgilanadi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan korxonaning asosiy prinsipi faoliyatning uzluksizligini nazarda tutadi, bu korxonada salohiyatining mavjudligi va barqaror o‘sishi bilan ta‘minlanishi mumkin. Shuning uchun boshqaruv oldida nafaqat bankrotlikning oldini olish, balki potensialning oshishini ta‘minlash vazifasi ham doimo dolzarb bo‘ladi.

Potensial odatda harakatga keltirilishi mumkin bo‘lgan imkoniyatlar sifatida tushuniladi, ya‘ni ma‘lum bir maqsadga erishish uchun ishlatiladi. Bugungi kundagi har qanday zamonaviy kompaniya ishlab chiqarish, mulkiy, ilmiy, mehnat, moliyaviy va boshqa turdagi potensialga ega. Har qanday potensialning mavjudligi va undan foydalanish u yoki bu darajada kompaniya faoliyatining natijasini tasir ko‘rsatadi va kelajagini belgilaydi.

Sanoat korxonasining ishlab chiqarish salohiyati ostida biz mavjud resurslardan samarali foydalanish orqali mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlarini tushunamiz.

Korxonada mahsulot ishlab chiqarish menejerlar tomonidan ma‘lum muddatga (yirik korxonalarda bir yilga) ishlab chiqilgan ishlab chiqarish dasturi (ishlab chiqarish rejasini) asosida amalga oshiriladi. Turli sohalaridagi korxonalar uchun ishlab chiqarish dasturini ishlab chiqish mahsulotlarning tabiati va ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlariga qarab belgilanadi.

Ishlab chiqarish dasturi barcha shartnomalar va buyurtmalarning hajmi, muddati va sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha bajarilishini ta‘minlashi kerak, shuning uchun u mahsulotlarning butun assortimenti va tarkibi bo‘yicha ishlab chiqiladi. Nomenklatura-bu ishlab chiqarish tomonidan ishlab chiqariladigan har xil turdagi mahsulotlar ro‘yxati. Assortiment- bu turlari va o‘lchamlari bo‘yicha turli nomenklatura guruhlarining majmui hisoblanadi.

Sanoatda ishlab chiqarish hajmi qiymat jihatidan sotiladigan mahsulotlar ko‘rsatkichi bo‘yicha rejalashtiriladi. Ushbu ko‘rsatkich kelajakda ishlab chiqarish xarajatlarini, korxonaning moliyaviy natijalarini, rentabellikni va ishlab chiqarish samaradorligining boshqa ko‘rsatkichlarini hisoblash uchun ishlatiladi. Tovar mahsulotlarining tannarxi-bu korxonada tomonidan ishlab chiqarilgan, sotish va ichki iste‘mol uchun mo‘ljallangan mahsulotlarning (ishlarning, xizmatlarning) ushbu qismining qiymatidir.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, butun korxonada ham, uning alohida bo‘linmalarida ham ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish to‘g‘risidagi ma‘lumotlarga ega bo‘lgan holda, ishlab chiqarish rejasini ishlab chiqish bosqichida ham, uning bajarilishini tahlil qilish bosqichida ham ulardan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan obyektiv boshqaruv qarorlarini qabul qilish mumkin.

Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni takomillashtirish korxonaning muhim vazifalaridan biridir. Imkoniyatlardan foydalanish darajasi keng va intensiv omillarning qanchalik to‘liq amalga oshirilishiga bog‘liqdir.

Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni keng takomillashtirish, birinchidan, mavjud uskunalarning ishlash vaqtini ko‘paytirishni, ikkinchidan, mavjud uskunalarning solishtirma og‘irligini oshirishni nazarda tutadi.

Intensiv yo‘l vaqt birligiga uskunalardan foydalanish darajasini oshirishni o‘z ichiga oladi. Bunga mashina va mexanizmlarni texnik takomillashtirish, ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish, mehnatni tashkil etish, ishlab chiqarish va boshqarishni takomillashtirish, ishchilarning malakasini oshirish va kasbiy mahorati asosida erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat mulkini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni, 14.02.2024 yildagi O‘RQ-907-sonli.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. 28.01.2022 yildagi PF-60-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 24.01.2020 yil. <https://president.uz/oz/lists/view/3324>.
4. Цикличность развития экономики и финансовой сферы : монография / В.М. Пищулов. — Москва : ИНФРА-М, 2023. — 212 с.
5. Korxonalarni rivojlantirish strategiyasi Darslik / X.S. Asatullayev, V.O.Tursunov, M.A. Mamanazarov; -T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019.-524 b.
6. Muminov N.G. Industrial iqtisodiyot: Darslik. I qism / T.: “Tafakkur-bo‘stoni” nashriyoti, 2020., 261 bet.
7. Korxonalar iqtisodiyoti va menejmenti: O‘quv qo‘llanma. Ashurova N.B., Atamuradov Sh.A. -Navoiy: NDKI, 2019.
8. Korxonalarni rivojlantirish strategiyasi Darslik / X.S. Asatullayev, V.O.Tursunov, M.A. Mamanazarov; -T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019.-524 b.
9. Данилов, А. А., & Силкина, Г. Ю. (2020). Принципы функционирования промышленного предприятия в условиях устойчивого развития. *π-Economy*, 13(5), 82-94.
10. Шалимова, Е. С. (2020). ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ МОЩНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ. Теория и практика современной науки, (6 (60)), 401-408.
11. Зиёдинова, Н. (2023). ИНВЕСТИЦИОН ҚАРОРЛАР ҚАБУЛ ҚИЛИШДА МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТЛАРНИНГ ЎРНИ. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/2), 173-179.
12. Qudbiyev, N. T. (2023). KORXONALARNING INNOVATSION STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQUISH XUSUSIYATLARI: KORXONALARNING INNOVATSION STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQUISH XUSUSIYATLARI.
13. Мамажонов, Г. (2023). KORXONALARIDA ISHLAB CHIQUISH QUVVATLARIDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб

муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(3), 78-87.

14. Mamajonova, G. (2022). The Mechanism of Integration of Cluster Members into the Innovative Environment for the Implementation of Innovative Projects. *Miasto Przyszłości*, 28, 455-458.

15. Kurbonaliyevna, I. G. (2024). Foreign Investments and Their Importance in the Modern Economy. *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, 3(4), 1-7.

16. Nabievich, I. I. (2023). The Role and Specifics of the Valuation Method in Accounting. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, 4(5), 24-31.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

